

Ohangaron shahri TDTU “Energetika va mashinasozlik” fakulteti Olmaliq filialida davra suhbatlari o'tkazildi

Joriy yilning 13- iyun kuni Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universitetining Olmaliq filiali “Energetika va mashinasozlik” fakultetida davra suhbatlari tashkil etildi. Unda Toshkent viloyati statistika boshqarmasi Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi boshlig'i Orol Sattorov hamda universitet o'qituvchi va talabalari ishtirok etishdi.

Davra suhbatlari dastlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5- fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida 2022- yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5655- sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2020- yil 16- martdagi O'RQ-611- sonli “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati hamda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda targ'ibot ishlarini olib borish ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ta'kidladi.

Shuningdek, aholini ro'yxatga olishning tashkiliy va metodik tamoyillari, dasturiy-texnik ta'minoti va ma'lumotlarni qayta ishlashning texnologik jarayonlari, xorijiy davlatlar tajribalari va shu kunga qadar bajarilgan ishlar hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berib o'tdi.

Davra suhbatlari yakunida talabalarni qiziqtirgan savollariga mutaxassislar tomonidan batafsil javob berildi.